

HAYOTIY MAZMUNNI MO'LJALGA OLISH TALABALAR KELAJAK HAYOTINI BELGILOVCHI OMIL SIFATIDA

Meliboyeva Munajat Abdukaxxorovna

Nizomiy nomidagi O'zbekiston milliy pedagogika universiteti
registrator ofis menejeri

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19819046>

Talabalik davrini tadqiq etgan bir qator tadqiqotchilarning e'tirof etishicha, bu yosh davrining o'ziga xos xususiyatlari, bu yoshda yuz beradigan psixologik o'zgarishlarning bir butunligi, yaxlitligidadir. Bu yosh davrida etakchi faoliyatni o'quv-kasbiy faoliyatga o'tishidan tashqari, insonda tizimlararo qadriyatlarning shakllanishi yuz berib, me'yoriy qadriyatlar tizimi tashkil topadi. Shu o'rinda o'zini o'zi anglash tizimida o'zgarishlar kuzatiladi, "Men" obrazi katta ahamiyat kasb etadi. O'zini o'zi baholash mezonlari va darajalari o'zgaradi. Yoshlar faollashib kelajak uchun rejalar tuzadilar.

Yuqorida e'tirof etilgan o'zgarishlardan talabalik yoshini inson nafaqat kasbiy balki birmuncha keng doirada o'zining shaxsiy hayot strategiyasini (yo'lini) ham anglagan holda faol ravishda qurish bilan shug'ullanadigan davr deb hisoblash mumuin. Bunday faoliyatning muvaffaqiyat mezonlaridan biri, hayotdan qoniqish darajasining yuqoriligi bo'lishi mumkin.

Bizning tadqiqotimizning maqsadi hayot mazmuni orientatsiyasi va qiyin hayotiy vaziyatlarni engib o'tish yo'llari o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik xarakterini o'rganishdan iborat. Biz bu bilan bog'liqlikda quyidagi empirik vazifalarni hal etdik:

- talabalarda hayot mazmuni orientatsiyasining shakllanganlik darajasini aniqlash;
- talabalardagi enib o'tuvchi xulq-atvor xususiyatlarini aniqlash;
- talabalardagi hayotdan qoniqish darajasini tadqiq qilish;
- hayotdan qoniqish darajasi, hayot mazmuni orientatsiyasining o'ziga xos xususiyatlari va qiyin hayotiy vaziyatlarni engib o'tishning maqbul yo'llari o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni o'rganish [3].

Hayot mazmuni orientatsiyasining umumiy ko'rsatkichi va qiyin hayotiy vaziyatlarni engib o'tishning faol yo'llari o'rtasida bog'liqlik aniqlandi. Bunday tarzda o'zini o'zi namoyon qilish bilan bog'liq bo'lgan maqsadlarni o'z oldiga qo'ya biladigan va o'ziga ishongan shaxsiy hayotining mazmun mohiyatini izlashga intiluvchi shaxs vujudga kelgan qiyinchiliklar, muammolarni o'zining kuchi, bilim, ko'nikma va malakasiga tayangan holda faol ravishda o'zgartirishga moyil. Bizning tadqiqotimizda talabalarni hayotdan qoniqqanlik darajasini hayot mazmunini orientatsiyasining umumiy ko'rsatkichi bilan bog'liqligi aniqlandi. Ta'kidlashimiz mumkinki, qachonki sub'ekt o'zining hayotini mazmunan boyitsa, uning hayotdan qoniqqanlik darajasi umumiy ravishda ortadi. Bilvosita manipulyativ yo'l qochishning sust yo'li va hayotdan qoniqqanlik o'rtasida o'zaro qaytarma korrelyatsion bog'liqlik mavjudligi bizning tadqiqotimizda kuzatildi [1].

Shunday qilib, qiyin hayotiy vaziyatlarni engib o'tishda asosan sust va manipulyativ yo'llarni qo'llovchi inson hayotdan kam qoniqish oladi. Buni bir tarafdin samarasiz hayotiy yo'llarni amalda qo'llash ayniqsa, uning sub'ektiv nuqtai nazariga tayanish hayotiy muvaffaqiyatga etaklamasligi, boshqa tarafdin inson o'zining shaxsiy hayotidan qoniqmagan vaziyatida shaxsiy faolligini namoyon etishni muhim deb bilmasligi bilan izohlash mumkin.

Bilvosita yo'lni ifodalovchi manipulyativ shakllar, assotsial yo'lli tajovuzkor shakllari, sust yo'llarni namoyon etuvchi qochish shakllari o'rtasida ijobiy korrelyatsion bog'liqlik kuzatildi.

Taxmin qilishimizcha, bunday tarzda bizning ko'z oldimizda qiyin vaziyatlardagi xulq-atvorning o'ziga xos strategik modeli gavdalanadi. Chunonchi, sub`ekt hayotiy qiyin vaziyatlarga duch kelganda manipulyativ va qochuvchi xulq-atvorni namoyon qilsa, vaziyatning ahamiyati ortishi bilan himoyalovchi agressiyaga tayanadi [2].

Talabalik davrida hayotdan qoniqqanlikni shakllanganligini o'rganish maqsadida sinaluvchilar guruhida "hayot mazmunini mo'ljalgan olish" metodikasidan foydalandik. Metodikani o'tkazishdan asosiy maqsad talabalik davrida hayotiy mazmunni anglab etilganligi ulardagi hayotdan qoniqishni belgilovchi omil ekanligini aniqlashdan iborat. Tadqiqot metodikasi sinaluvchilar guruhida o'tkazilib, natijalar miqdor va sifat jihatidan tahlil qilindi. Miqdoriy tahlil natijalari jadval va diagrammalarda aks ettirildi.

1-jadval

Talabalik davrida hayotiy mazmunni anglanganlik darajasi (o'rtacha qiymat bo'yicha)

№	Ko'rsatkichlar	1-kurs	3-kurs
1	Hayotdagi maqsadlar	19,6	21,9
2	Hayot jarayoni yoki qiziqish va hayotning emotsional to'laqonliligi	18,7	19,5
3	Hayotning natijaviyligi yoki o'zini qayta tiklashdan qoniqqanlik	17,3	18,9
4	Lokus nazorat-men (men hayot xujayiniman)	20,6	21,3
5	Lokus nazorat –hayot yoki hayotni boshqarish	21,7	22,6

Jadval natijalariga ko'ra sinaluvchilar guruhida hayotdagi maqsadlar $M=19,6$ va $M=21,9$ ni tashkil qilganligini ko'rishimiz mumkin. Ma'lumki, maqsad – inson faoliyati so'nggi natijasining obrazi sifatida namoyon bo'ladi va ehtiyojlarini amalga oshirilishidir. Ta'kidlash joizki, bu kelajakdagi hayot uchun maqsadlarning mavjudligini yoki yo'qligini ifodalaydi, u hayotga mazmun bag'ishlashi bilan ajralib turadi. Shuningdek, talabalarni maqsadga yo'nalganligini ifodalashi bilan birga shaxsni bugungi kun bilan yoki o'tmish bilan yashayotganligini ko'rsatib beradi.

Talabalarining hayot jarayoni yoki qiziqish va hayotning emotsional to'laqonliligi shkalasi bo'yicha natijalariga nazar tashlaydigan bo'lsak, $M=18,7$ va $M=19,5$ ni tashkil qiladi. Mazkur shkalaning mohiyati mashhur nazariya bilan mos tushadi, ya'ni hayotdagi yagona ma'no bu yashashdir. Bu ko'rsatkich sinaluvchi o'z hayot jarayonini qiziqarli, emotsional to'liq va mazmunga ega deb hisoblaydimi yoki yo'qmi shuni ko'rsatadi. Unga ko'ra, sinaluvchilarda ko'rsatkichlarni ahamiyatligi ularning bugungi kun bilan yashovchi shaxs ekanligini ko'rsatadi. Shuningdek, ayrim o'rinlarda shaxsning bugungi kundagi hayotidan qoniqmayotganligini ko'rsatadi, ammo unga o'tmishdagi xotiralar hamda kelajakka yo'nalganlik ma'noga ega bo'lishi mumkin.

Hayotning natijaviyligi yoki o'zini qayta tiklashdan qoniqqanlik sinaluvchilar guruhida $M=17,3$ va $M=18,9$ ni tashkil qiladi. Unga ko'ra, sinaluvchilar guruhida hayotning natijaviyligidan qoniqqanlik ahamiyatli darajada ekanligi ko'rsatadi. Bu shkala o'tgan hayot qismining bahosini aks ettiradi, ya'ni hayot qanchalik samarali va mazmunli kechirilganligi namoyon bo'ladi. Shu o'rinda sinaluvchilarda bu ko'rsatkichlar o'tgan hayot yaxshi o'tganligi sababli undagi xotiralar qolgan inson umriga mazmun bag'ishlashini aks ettiradi.

Shaxs psixologiyasida odamni u bilan sodir bo'layotgan narsalarga mas'uliyatni tashqi omillarga yoki o'ziga yuklashi lokus nazorat deb ataladi. Mazkur tushunchani Dj.Rotter tomonidan

kiritilgan. Agar odam ichki lokus nazoratiga ega bo'lsa bunday odamlarni internallar deb atashadi. U o'zini hayotini yaratuvchisidek his qiladi. Internallar boshqalarni ta'siriga unchalik tushmaydilar, agar ularni boshqarishga bo'lgan urinishni sezishsa bunga nisbatan o'z qarshiliklarini ko'rsatadilar. Nazorat ostida ishlagandan ko'ra yolg'izlikda yaxshiroq ishlaydilar va shaxsiy erkinlikni yo'qligini qiyin kechirishadi. Talabalar guruhida Lokus nazorat-men (men hayot xujayiniman) $M=20,6$ va $M=21,3$ ni tashkil qilganligini ko'rishimiz mumkin. Bu ularning o'zi haqida kuchli shaxs sifatidagi tasavvurga egaligi hamda etarli darajada qaror qabul qilishdagi erkinlik, hayotni o'z maqsadlari va tasavvurlariga tayangan holda qurishni ko'rsatadi. Agar odam u bilan sodir bo'layotgan narsalar tashqi uning ixtiyorida bo'lmagan kuchlar odamlar ta'sirini natijasi deb o'ylasa ularni eksternal deb atashadi, u bu sodir bo'layotgan hodisalarni hammasini qabul qilishga yo'nalgan bo'ladi.

Ular hayotiy ijodda internallar kabi yuqori cho'qqilarni egallamasada echimi murakkab bo'lgan muammolarni o'ziga olmaydi. Eksternallar komformli qonunga rioya etadilar, atrofdagilar ta'siri va bosimiga tushadilar yolg'izlikdan ko'ra odamlar bilan birgalikda yaxshiroq ishlaydilar. Ular o'z faoliyatini tashkil etishda qiynalishadi, rejalashtirishda ular asosan tashqi talabni inobatga oladilar.

Lokus nazorat odamni atrofdagilar bilan munosabatini qanday qurish bilan uzviy bog'liq. Qoida bo'yicha internallar o'ziga ishonchanroq guruhda mashhur va eksternallarga qaraganda sabrliroq. Internallarda o'z sog'lig'iga nisbatan faol munosabat aniqlangan: ular sog'lig'ining xususiyatlarini yaxshiroq bilishadi, o'ziga qarashadi va profilaktik yordamga ko'proq murojaat qiladilar. Eksternallik esa asincha tushkun kayfiyat sog'lig'i uchun xavotir bilan xarakterlanadi.

Ko'p yillar davomida lokus nazorat shaxsning barqaror tavsifnomasi uzoq vaqt saqlab qolinadigan va uning hamma hayot sohalariga yutuq va muvaffaqiyatsizliklar sog'liq o'qish ish oila do'stlari bilan munosabatlariga aloqador deb qaralgan. Ammo keyinchalik, lokus nazorat odamni hayotiga ta'sir etishning real imkoniyatlariga qarab o'zgarishi mumkinligini aniqlanadi. Lekin, u qanday bo'lishidan qat'iy nazar odam sodir bo'layotgan narsalarni baholashda realistroq bo'lishi muhimroq. Shunga ko'ra, Lokus nazorat –hayot yoki hayotni boshqarish sinaluvchilar guruhida $M=21,7$ va $M=22,6$ ni tashkil qilganligini ko'rishimiz mumkin. Unga ko'ra, insonga o'z hayotini nazorat qilish huquqi mavjudligi, mustaqil qaror qabul qilish va uni amalga oshirishga imkon mavjudligi fikri mavjud bo'lishligi bilan belgilanadi.

Keltirilgan fikrlardan ko'rish mumkinki, talabalik davrida hayotiy mazmuni mo'ljalga olishni shakllanishiga kelajak hayotini tarkib topishiga ta'sir etuvchi omil ekanligi ko'rsatib o'tildi. Shuning bilan birga talabalik davrida kelajak hayotni rejalashtirish ulardagi hayot yo'lini tanlash, hayotiy mazmun bilan aloqadorlik masalalar qayd qilindi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Абрамова Г.С. Возрастная психология: Учебное пособие для студентов вузов. - М.: Академический Проект, 2000. - 624 с.
2. Головаха Е. И. Жизненная перспектива и профессиональное самоопределение молодежи. - К.: Наукова думка, 1988. - 144 с.
3. Цукерман Г.А. Психология саморазвития: задача для подростков и их педагогов. - Москва-Рига, 1995